

**XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA OTA OBRAZI***To'rayeva Sadoqat Qahramonovna*

*Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'naliishi 2-kurs talabasi*

**FATHER IMAGE IN KHURSHID DAVRON'S POETRY***Tauraeva Sadat Qahramanovna*

*Faculty of Philology and arts, Urgench State University philology and language training: Uzbek language education direction 2nd year student*

**ОБРАЗ ОТЦА В ПОЭЗИИ ХУРШИДА ДАВРОНА***Тураева Садагат Героновна*

*Ургенчский государственный университет факультет филологии и искусств преподавание филологии и языков: узбекский язык направление образования студент 2 курса*



<https://orcid.org/0009-0009-8094-3888>

Elektron pochta:  
[qahramonovna226@gmail.com](mailto:qahramonovna226@gmail.com)

Telefon raqam: +99 899-081-24-26

**Annotatsiya:** Mazkur maqloda o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lgan Xurshid Davron she'riyatidagi ota obrazi tahlilga tortilgan. Ijodkorning ota obrazini tasvirlashdagi mahorati shoir she'rlarini tahlil qilish orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ota, farzand, ota mehri, ota-onas, ota xotirasi, sog'inch, qo'msash, ota qadri, qo'shiq.

**Abstract:** This article analyzes the image of the father in the poetry of Khurshid Davron, one of the leading representatives of Uzbek literature. The artist's skill in portraying the image of the father is revealed through the analysis of the poet's poems.

**Key words:** father, child, father's love, parents, father's memory, longing, bereavement, father's value, song.

**Аннотация:** В данной статье анализирует образ отца в поэзии Хуршида Даврона, одного из ведущих представителей узбекской литературы. Мастерство художника в изображении образа отца раскрывается посредством анализа стихотворений поэта.

**Ключевые слова:** отец, ребенок, отцовская любовь, родители, память об отце, тоска, утрата, ценность отца, песня.

**Kirish (Введение / Introduction).** Mahoratlari Xurshid Davron ijodini o'rghanar ekanmiz, uning she'riyatida mavzular xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, shoir har bir mavzuga

o'zgacha yondashadi, ya'ni mavzuning ochilmagan qirralarini ochishga harakat qiladi. Biz buni shoir she'rlaridagi ota timsoli orqali ham kuzatishimiz mumkin. Chunki aynan ota timsoli keng

mushohadali qilib yoritilgan, aniqrog'i bos obraz darajasida olib chiqilgan ijod namunalari nihoyatda kam, ona haqidagi hikoya va qissalar, she'rlar esa xotiraga singib ketgan. Hamisha onalarimizni kuylaymiz, ulug'laymiz. Albatta bu arzirli holat. Ammo ba'zi o'rinnarda ularning yonida tog' bo'lib turgan padari buzrukvorimiz ham ana shunday alqovlarga loyiq, nazarimda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**  
**(Литература и методология/Materials and methods).** Xurshid Davron she'riyatida ota mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu xususda Qozoqboy Yo'ldoshev [1], Dilnoza Nusratulloyevalar [2] o'z maqolalarida Xurshid Davron lirikasidagi ota obraziga ham to'xtalib o'tgan, ammo ushbu mavzu to'laqonli ravishda ochib berilmagan. Ushbu maqolada esa shoir she'riyatidagi ota obraziga alohida to'xtalib, ba'zi fikrlar bildirib o'tilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida esa struktural tahlil usuli hamda qiyosiy-tipologik tasniflash kabi metoddardan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar (Обсуждение и результаты/Discussion and results).** Ota haqida shunday hikoyatlar borki, ular otaga bo'lgan hurmat-e'tiborning namunasi hisoblanadi. Masalan, ota yotgan uyning tomiga chiqish mumkin emasligi, otaga tik qarashning oqqadarlikka tenglashtirilishi kabi. Farzandning kamolga yetishi va ulug'martabalarni egallab, ikki dunyo saodatiga erishishda ota nasihatining ahamiyati nihoyatda katta. Chunki ota-bobolarimiz "Ota rozi – Xudo rozi" deb bekorga aytishmagan.

Demak, ushbu maqolada shu xususda shoirning "Otam xotirasiga" deb nomlangan she'rini tahlilga tortamiz. Shoirning o'zi bu she'rning yaratilishi haqida shunday deydi: "Ota haqidagi she'rغا to'xtalmoqchi bo'lsam, yuragimda bir armon chuqur iz qoldirgan. Men Germaniya degan yurtning sharqiy qismida harbiy xizmatda burchimni o'tab yurgan paytda, otam vafot etganlar. Uzoq mamlakatdan salkam bir oy deganda otam mozori boshiga kela olganman. Men otamning erka o'g'li bo'lganman. Otamdan erta ajralish hissi, so'nggi lahzalarda yonlarida bo'limganim, tobutlarini ko'tarmaganim armon bo'lib qolgan. Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin o'g'illik bo'lganimda, mana shu nevaralarni bir ko'rsalar edi, degan achchiq o'y uyg'ongandi yurakda. Endi bu insoniy bir dard. Ana shunda yozilgan bu she'r. Ota-onam haqida ko'p she'r yozganman. Faqat shu she'rim qo'shiqqa aylandi.

Taniqli qo'shiqchi Azim Mullaxonov mashinada ketayotib, allaqaysi jurnalni varaqlab o'tirganda, shu she'rni o'qib varaqni yirtib olgan-da keyin o'sha kuniyoq kuy bastalab, qo'shiq qilgan" [3]. Aynan shu she'rda ota obrazini ko'rib chiqamiz.

Yuqorida shoirning otasi vafot etganda yonida bo'limganligi aytildi. Ushbu she'rining boshlanmasida ham ana shunga ishora qilingan. Ya'ni otasini tongda derazasining oldida sayrayotgan qushga o'xshatadi. Go'yoki otasi qush bo'lib uchib kelgan va farzandini yoniga da'vat qilganday xonish qilgan. Shoir she'rning bir necha baytida xayolan otasiga savollar berib murojaat qilgan holda undalmalardan foydalangan.

Derazamning ostida tongda

Sayragan qush senmasmi, ota? [4]

Hattoki otasi bilan mozorda ham xayoliy suhbati davom etadi. Mozorda to'nimga yopishgan gulni ham "senmasmi, ota?" deya otasidan so'rab ko'radi.

Yo to'nimga ko'klam, mozorda

Yopishgan gul senmasmi, ota? [4]

Ushbu she'r 1982-yilda yozilgan bo'lib, shoir keyingi baytda otasining o'n yildan buyon dunyoda, yonida yo'qligini aytib xo'rsinadi. Otasining janozasida qatnasholimganligini eslab, haligacha ana shu armon yuragida alamli cho'g' bo'lib yonishini va bu cho'g' qalbida abadiy qolishini aytib o'tadi.

O'n yildirki dunyoda yo'qsan,

Yuragimda qolgan firoqsan. [4]

Hozirgi kunda har bir ota-onan farzandini ne-ne orzu-niyatlar bilan katta qiladi. Aynilsa, farzandining rohatini ko'rish, nabiralarini katta qilishdek niyatlarni yuragiga tugadilar. Afsuski, shoirning otasi bularni ko'rmasdan, shunday baxtni to'liq his qilmasdan dunyodan o'tganlar.

Otasi shoirning o'g'lini ko'rmasdan vafot etganligi yuqorida ham aytib o'tildi. Keyingi baytda aynan ana shu armonini aytib o'tgan. Farzandining erkatoj, sho'x va to'q bo'lib o'sganligini ham ta'kidlagan.

Ko'rmagansan mening o'g'limni,  
Erkatojim, sho'xim, to'qlimni. [4]

Ota bo'lish qanchalik mashaqqatli va mas'uliyatlari ekanligini insonning o'zi ota bo'lgandagina his qilib sezalbosholaydi. Shoirning o'zi ham otasiga o'xshab yoshlari oshgani sayin, sochlariqa oq tushgani sayin otasini juda sog'inib qo'msaydi. So'nggi ilinji qalbinining qa'rida turib, yuragini titratayotganini aytadi. Yuragining tub-tubida otasiga bo'lgan mehri

va uni sog‘inish hissini baytda so‘zlar yordamida bayon qiladi.

Men ham yoshim o‘tgani sayin,  
Boshimni oq tutgani  
sayin,

Ba’zan qo‘msab seni ich-ichdan,  
Yurak titrab so‘nggi ilinjdan, [4]

Shoir farzandini otam deya alqaydi. Buning sababi esa otasi vafot etgandan keyin yonida shu farzandi unga dalda va suyanch bo‘lganligidir. Ana shu bilan shoir o‘z ko‘nglini o‘zi ko‘tarib yurishi tasvirlangan.

Otam deya, alqab o‘g‘limni,  
Ko‘taraman o‘zim ko‘nglimni. [4]

Ota-onaning har bir pand-nasihatni farzand uchun oltinga teng hisoblanadi. Ular hech qachon o‘z jigarbandlariga yomonlikni ravo ko‘rmaydi, hamisha yaxshilikni sog‘inadilar, ilinadilar. Shu xususda shoirning boshqa yana bir bayti mavjud. Unda otaning bitta shirin kalomi Himolay tog‘idek keladigan oltinlarga tenglashtirilgan, hatto bu tog‘ning kalomlardan ham pastda ekanligi tasvirlangan.

Otaning bir shirin kalomi uchun  
Himolay tog‘idek oltinlar ham past. [5]

Demak, Xurshid Davron she’riyatida ota obrazini tahlil qilar ekanmiz, tabiiyki, adabiyot sohasida qalam tebratayotgan boshqa shoir va yozuvchilarimizning ijodida ham ota mavzusidagi she’rlar va asarlar ko‘zga tashlanadi. Ammo har bir ijodkorning o‘z yo‘nalishi bor. Ko‘pchilik ijod namunalarida ota-onada yonma-yon, birgalikda madh qilinadi. Faqat otaga bag‘ishlangan asarlar esa kamdan kam uchraydi. Xusan, Zebo Mirzayeva [6] she’rlarida ham ota obrazi uchraydi. Ulug‘bek Hamdam[7]ning esa “Ota” nomli romani mavjud. Biroq bu asarlar bir-biridan tubdan farq qiladi. Ya’ni kimdir otasi yonida ekanligida, kimdir esa uni yo‘qotgan keyin asar yaratadi. Bundan tashqari ushbu mavzuda asar yaratish jarayonida shoir, yozuvchilar o‘zgacha, bir-biriga o‘xshamagan histuyg‘ular og‘ushida bo‘ladi. Va ularni qog‘ozga tushiradi. Ayniqsa, Erkin Vohidov [8] ham “Nido” dostonida ota tasviriga batafsil to‘xtaladi. Ammo unda otaning urushga ketgani va boshqa dahshatlvoqealar achinarli holda tasvirlangan.

Xurshid Davron har bir so‘zga katta vazifa yuklagan holda she’r bitadi. Har bir so‘zda o‘z dardlarini, o‘z orzu-armonlarini aks ettiradi. N.V. Gogol aytganidek, “So‘z ko‘p emas, ammo ular shu qadar aniqki, ular barcha narsani ifodalaydi. Har bir so‘zda tubsiz kenglik bor, har bir so‘z shoir kabi qamrov bilmaydi”.[9]

**Xulosa** (**Заключение/Conclusion**). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, atrofimizdagi insonlarni borida qadrlashimiz kerak. Ularni yo‘qotganimizda esa kech bo‘ladi. Shuning uchun ham dono xalqimiz “Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q”, deb bejiz aytmagan. Xurshid Davron ham otasining ruhini shod qilish maqsadida, ushalmagan orzularini va uning armon bo‘lib qolganligini ushbu “Otam xotirasiga” she’rida o‘zining she’riy misralari orqali bayon qilgan. Bundan tashqari ota timsoli hayotimizda ikkinchi darajali qahramon emas, balki muhim ahamiyat kasb etuvchi qahramon sifatida qadrlashimizni uqtirgan.

Bunga qo‘shimcha tarzda shuni aytib o‘tishim kerakki, ota-onada oldida hech qachon to‘lab bo‘lmash qarzimiz borligini unutmasligimiz kerak. Shuning uchun ularni vaqtida qadrlashimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev. Q. Yoniq so‘z. Toshkent: Yangi asr avlodni nashriyoti, 2006.
2. <https://kh-davron.uz/ijod/adib/dilnoza-nusratulloyeva-xurshid-davron-lirkasida-davr-va-shaxs.html>
3. <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-otam-va-onamga-bagishlov.html>
4. Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
5. <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-otam-va-onamga-bagishlov.html>
6. Zebo Mirzayeva. Ishq. Toshkent: Akademnashr, 2011.
7. Ulug‘bek Hamdam. Ota. Toshkent: Yangi asr adabiyoti, 2020.
8. Erkin Vohidov. Saylanma. Toshkent: Sharq, 2001.
9. Gogol N.V. Poln. Sobr. Soch., T.8.M.: Izd-vo AN SSSR, 1952.